

RAQAMLI TA'LIM DAN TEXNOLOGIYA DARSLARIDA FOYDALANISH
SAMARADORLIGI

Xusayinova Go'zal Abdurasulovna
NamDU 2-kurs tayanch doktranti

Аннотация: Мақоллада дars axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining asosiy g'oyalari amalga oshirishning bevosita vositasi sifatida eng puxta ishlab chiqishni talab qilingan. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishidan asosiy maqsad — aynan zamonaviy axborot muhiti uchun xarakterli bo'lgan o'quv faoliyatlarining yangi turlarini paydo bo'lishi va dars jarayonida tayyor multimediali mahsulotlari va kompyuter ta'limi dasturlaridan, o'quv va sinfdan tashqari ishlarda Internet tarmog'i vositalaridan foydalanib, multimediali ta'lim dasturlari va taqdimotlar, loyihalar yaratilishi haqida aytilgan.

Калит so'zlar: dasturiy ta'lim vositalari, multimediya, axborot-kommunikatsiya, internet, didaktik o'yin, elektron darslik.

Аннотация: В статье требуется максимально тщательная разработка урока как непосредственного средства реализации основных идей информационно-коммуникационных технологий. Основной целью внедрения информационно-коммуникационных технологий в образовательный процесс является появление новых видов учебной деятельности, характерных для современной информационной среды, и использование в курсе готовых мультимедийных продуктов и компьютерных образовательных программ. урока. Кроме того, было упомянуто о создании мультимедийных образовательных программ и презентаций, проектов с использованием средств сети Интернет.

Ключевые слова: обучающее программное обеспечение, мультимедиа, информация и коммуникация, Интернет, дидактическая игра, электронный учебник.

Annotation: In the article, the most thorough development of the lesson as a direct means of implementing the main ideas of information and communication technologies is required. The main goal of the introduction of information and communication technologies into the educational process is the emergence of new types of educational activities, which are characteristic of the modern information environment, and the use of ready-made multimedia products and computer educational programs in the course of the lesson. In addition, it was mentioned about the creation of multimedia educational programs and presentations, projects using Internet network tools.

Key words: educational software, multimedia, information and communication, Internet, didactic game, electronic textbook.

Mamlakatimizda ta'lim tizimida maktab fanlarini o'qitishda AKT dan samarali foydalanish dolzarb masaladir. Aynan axborot texnologiyalari ta'limning universal vositasi hisoblanib, nafaqat o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish imkonini beradi, balki shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish, bilishga qiziqishlarini qondiradi.

Pedagogik va psixologik tadqiqotlarda shu narsa ta'kidlanmoqdaki, AKT o'quvchilarning nazariy, ijodiy va refleksiv tafakkuri rivojlanishiga katta ta'sir etadi. O'quvchining xotirasida u yoki bu hodisa, jarayonning obrazli ifodalanishi o'quv materialini boyitib, uning ilmiy jihatdan o'zlashtirilishiga yordam beradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishidan asosiy maqsad — aynan zamonaviy axborot muhiti uchun xarakterli bo'lgan o'quv faoliyatlarining yangi turlarini paydo bo'lishidir. Ma'lumki, boshlang'ich ta'lim — ta'lim tizimining poydevori hisoblanib, o'quvchilarni o'qitish sifati unga bog'liq bo'ladi va bu boshlang'ich maktab o'qituvchisi zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Uzoq vaqt davomida ta'lim tizimida boshlang'ich maktab «ko'nikmalar maktabi» bo'lib keldi, ya'ni o'quvchi keyingi ta'lim olish uchun o'qish, yozish, hisoblash kabi asosiy ko'nikmalarni o'zlashtirishi kerak bo'lgan ta'lim bosqichi sifatida qaralgan. Bugungi kunda boshlang'ich maktab boshqacha tasavvur etiladi. Bugungi kunda u ta'lim tizimida bolaning birinchi tajribasi — ta'lim olish kuchlarini sinash joyi bo'lib qolishi kerak. Ushbu bosqichda faollikni, mustaqillikni rivojlantirish, idrok etish faolligini saqlab qolish va bola ta'lim dunyosiga shaxdam kirib borishi uchun sharoitlar yaratish, uning salomatligini va emotsional xususiyatlarini mustahkamlash muhim. Bugungi kunda o'quvchilarning aynan mana shu sifatleri ta'lim jarayoniga AKT'ni joriy etish bilan rivojlanayotganligining guvohi bo'lmoqdamiz. O'z faoliyatimizda ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etib, ulardan foydalanib va o'quv jarayonida AKT'dan foydalanish bo'yicha ma'lum tajribalarni to'plab bormoqdamiz. Axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha tajribam an'anaviy dars doirasida AKT'ni didaktik jihatdan to'g'ri qo'llanilgan hollarda o'quv jarayonini individuallashtirish va differensatsiyalash uchun cheklanmagan imkoniyatlar paydo bo'lishini ko'rsatdi. Ular o'quvchilarga axborot manbalaridan foydalanish imkonini beradi, mustaqil ishlar samaradorligini oshiradi, ijodkorlik, malaka va ko'nikmalarni egallash va mustahkamlash uchun umuman yangi imkoniyatlar beradi, ta'limning yangi shakllariva metodlarini amalga oshirishga imkon beradi. Har bir o'quvchida shaxsiy o'quv yo'nalishini rivojlantirishni ta'minlaydi. O'quv jarayonida uni muvaffaqiyatli bilim olish uchun zarur bo'lgan asosiy jarayonlar sifatida fikrlashni, tasavvurni rivojlantirishga yo'naltirilgan katta o'zgarishlar sodir bo'ladi; o'quvchilarning idrok etish faoliyatlarini samarali tashkil qilish ta'minlanadi. AKT'dan foydalanilganda ta'limda shaxsga-yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish oson bo'lib qoldi, butun o'quv jarayonini samarali tashkil qilish imkoniyati paydo bo'ldi. Dars jarayonida tayyor multimediali mahsulotlari va kompyuter ta'limi dasturlaridan, o'quv va sinfdan tashqari ishlarda Internet tarmog'i vositalaridan foydalanib, multimediali ta'lim dasturlari va taqdimotlar, loyihalar yaratildi. Axborot texnologiyalarini barcha o'quv fanlarda qo'llash mumkin. Darslarda o'quv va o'yin dasturlaridan foydalanish katta samara beradi. Texnologiya darslarida savodxonlikni oshirish bo'yicha mashqlar yordam beradi, bunda bolalar kompyuterlarda turli xildagi amaliy topshiriqlarni bajaradilar. Boshlang'ich sinflar o'quvchilari uchun turli didaktik materiallar to'plamidan foydalanib, ko'rgazmali-mashq, nazorat-mashqlari va test sinovlari modullari kiritilgan aralash kompyuter dasturlarini tayyorlash mumkin. Unga fanga oid qoidalarni joriy o'rganish va umumlashtirilgan takrorlash uchun uchta variantlarda berilgan grammatika-orfografik mavzular bo'yicha boy va turli-tuman materiallardan foydalanish yaxshi

samara beradi. 1-sinfda texnologiya darsida elektron o'quv qo'llanmalaritayyorlab, foydalanish mumkin.. Yorqin rasmlar, g'aroyib, qiziqarli topshiriqlar tayyorlab ko'rsatish qiziqishni oshirishga yordam beradi, o'yin shaklida o'quv materiali bilan tanishish imkonini beradi, o'zini nazorat qilish va o'quv refleksiyasi uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi. Ushbu qo'llanma bo'yicha ta'lim jarayonini differentsiyalashga turli darajadagi murakkablikdagi topshiriqlarni tanlab olish yordamida erishiladi. Dars rejasini ishlab chiqishda frontal, individual va guruhli ishlash uchun kompyuterni qo'llash maqsadga muvofiq bo'lgan dars bosqichlarini ishlab chiqish lozim. Boshlang'ich sinfda texnologiya fanini o'rganiladigan ko'plab mavzular bo'yicha turli materiallar berilgan. Turli murakkablik darajasidagi turli xildagi topshiriqlar har bir o'quvchining idrok etish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ularning ustunlik tomonlari istagan paytda masalaning boshiga qaytish mumkin, uning alohida qismlarida to'xtalish, o'quvchilar bilan suhbatlashish, ularning fikrlarini tinglash mumkinligidan iborat. Boshlang'ich sinflarda harakatlanishga animatsiyali masalalar bilan slayd-filmlarni qo'llash mumkin. Shunday slaydlarni yaratish uchun Internetdan olingan animatsion kartinalardan foydalanish mumkin. Barcha o'quv fanlarida test topshiriqlaridan foydalanish zarur. Testlardan dastlab faqat bosma ko'rinishidagisidan foydalangan bo'lsak, hozirda ularni kompyuterda terib, har bir o'quvchi bilan shug'ullanish mumkin. AKT'dan foydalanish yillari davomida 1-sinfdan 3-sinfgacha matematika, badiiy o'qish, ona tili, texnologiya deyarli barcha mavzulari va boshqa o'quv fanlari bo'yicha qator turli testlarni tayyorlash mumkin. Endi darslarda faqat bosma shakldagi emas, balki kompyuterli testlardan foydalanish zarur. Ular bajarib bo'lishi bilan darhol bahosini olishga imkon beradi, bahoni kompyuterning o'zi taqdim etadi, u yoki bu mavzu bo'yicha kamchiliklarini aniqlashlariga imkon beradi. Asosiysi: test topshiriqlarini bajarishda o'quvchining ko'zi, miyasi va qo'llari ishtirok etadi, o'yin elementlari esa ularda bajarayotgan ishlariga qiziqishni rivojlantirishga va demak, ta'lim jarayoni jadalligi kerakli darajasini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Testlardan tashqari krossvordlar, sxemalar, jadvallardan foydalaniladi, o'quvchilar dars materiallarni mustaqil o'rganishda bevosita kompyuterda ishlaydilar. Barcha o'quv fanlarida qo'shimcha va rivojlantirish materiallari sifatida ko'plab videofilm hamda fotolavhalar bilan o'lkashunoslik materialidan foydalanish mumkin. Microsoft Power Point dasturlari yordamida yaratilgan taqdimotlar ta'lim jarayonida AKT'dan foydalanish juda samarali shakli hisoblanadi. Taqdimotda asosiysi —axborotliligi, ko'rgazmaliligi, qiziquvchanligi hisoblanadi. Mazkur dastur orqali turli mavzu va fanlar bo'yicha taqdimotlar yaratishda fotosuratlar, rasmlar, animatsiya, qo'shimcha axborotlardan foydalanish mumkin. Maktabda mavjud bo'lgan Internet tarmog'i ishimizda katta yordam ko'rsatadi. Internet —bu global axborot tizimi ekanligi barchaga ma'lum. U elektron pochta, izlash tizimlarini o'z ichiga oladi va turli axborot resurslaridan foydalanish imkonini beradi. Undan kerakli axborotlarni topish, qayta ishlab chiqish va ularni ko'paytirib, barcha kompyuterlarga o'rnatib bolalarga mustaqil juftlikda, guruhda, individual ishlashni taklif etish mumkin. O'quvchilarga turli xildagi topshiriqlarni taklif etish: tadqiqot o'tkazish, asosiysini tanlash, taqdimot tayyorlash, jadvalni to'ldirish imkoni paydo bo'ladi. Axborot olishning boshqa bir usuli —dars davomida bevosita Internetdan axborot olish hisoblanadi.

Internetdan avvaldan kerakli materialni topish, darsda esa uni o'quvchilarga ko'rsatish mumkin. Ishni o'rganilgan material bo'yicha dialog ko'rinishida olib borish mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilari Internetdan mustaqil foydalanishni, kerakli axborotni tanlashni, uni saqlab qolish va taqdimotlar tuzish yoki turli xildagi loyihalarni ishlab chiqish va bajarishda keyingi ishlarida foydalanishni biladilar. 2-sinfdan o'quvchilar faqat daftarda emas, balki bevosita kompyuterda ham topshiriqlarni bajara oladilar. O'quvchilar kompyuter bilan ishlash birinchi ko'nikmalarni oladilar, o'zlarining nazariy bilimlarini doimiy chuqurlashtirib va amaliy ko'nikmalarini takomillashtirib boradilar. Boshlang'ich maktabda kompyuterni o'zlashtirib o'quvchilar undan o'z faoliyatlari vositasi sifatida boshqa sinflarda ham foydalanishlari mumkin, kompyuterni qo'llash bilan olib boriladigan darslar ularda qiyinchilik tug'dirmaydi. Katta sinflarda informatika darslarida albatta kompyuterdan foydalanish ushbu dasturni amalga oshirish zarur sharti hisoblanadi. Kompyuterdan odatda yangi materialni muhokama qilishda elektron doska sifatida foydalanaman. Bundan tashqari, o'quv o'yinlarini tashkil qilish hamda individual ta'lim va kompyuterli praktikumni tashkil qilishda foydalaniladi. Ta'lim natijasida o'quvchilar o'quv va oddiy amaliy masalalarni yechish uchun kompyuterdan foydalanish: fayllar bilan oddiy operatsiyalarni amalga oshirish (yaratish, saqlab qolish, izlash, dasturni ishga tushirish); dasturlarda amaliy topshiriqlarni va ijodiy ishlarni bajarishni biladilar: Word Pad, Microsoft Power Point, Microsoft Excel, Microsoft Word; keng foydalaniladigan dasturlarni ishga tushirish: kompyuter ekranida matnli va grafik redaktor, trenajerlar, testlar; matnlar va tasvirlar (axborot), obyektlar bilan ishlash; izlash, oddiy o'zgartirishlarni, saqlash, foydalanish va axborot hamda ma'lumotlarni uzatishni amalga oshiradilar, mundarija, yo'l ko'rsatuvchi, kataloglar, spravochniklar, internetdan foydalanib, kompyuter yordamida kichik loyihalar va taqdimotlar yaratadilar. Shunday qilib, ushbu kursni boshlang'ich maktabda o'rganish o'quv jarayonini modernizatsiyalash, samaradorligini oshirish bilan birga, har bir o'quvchining individual qobiliyatlarini hisobga olib, uni tabaqalashtirishga imkon beradi. Taklif etilayotgan kurs o'qituvchiga ta'limni erkin boshqarish va o'quv axborotlarini taqdim etish turli usullarini qo'llash imkonini beradi. Kursda loyihatahqotchilik faoliyatiga alohida o'rin ajratilgan. O'quvchilarning loyihachilik faoliyatlari mustaqil tadqiqotchilik malakalarini, ijodiy qobiliyatlarini va mantiqiy fikrlashlarini rivojlantirishga yordam beradi; o'quv jarayonida olgan bilimlarini birlashtiradi va o'quvchilarni aniq hayotiy muhim masalalarni hal qilishda ishtirok ettiradi, ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchilar va o'quvchilar munosabati uslublarini demokratlashtirishga yordam beradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o'quvchilarni qiziqarli olamga olib kirishda o'qituvchining imkoniyatlarini kengaytiradi, bunda o'quvchilar axborotlarni mustaqil ravishda izlab topadilar, oladilar, tahlil qiladilar va boshqalarga yetkazadilar. Bolani axborot bilan ishlashga, o'qishga o'rgatish – zamonaviy boshlang'ich sinflarning muhim vazifasi hisoblanadi. Boshlang'ich sinflar ta'lim jarayonida AKTdan foydalanish faqat asosiy yo'nalishlari shakllanadi. O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlarini tashkil etishda AKTdan keng foydalanish birinchi navbatda, bu turli hisobotlarni tayyorlash, sinfdan tashqari tadbirlarni o'tkazish va shu kabilardan iborat bo'ladi. Kishilik jamiyati paydo bo'lgandan beri inson axborot

olish, tarqatish va undan foydalanishga ehtiyoj sezib keladi. Albatta, qadimda bu jarayon juda sodda ko'rinishga ega edi. Dunyo taraqqiy etgan sari u murakkablashib, axborotning jamiyatdagi o'rni yanada oshdi. Hatto, davrimiz ham "Axborot asri" -deb nom olgani bejiz emas. Yangi avlod uchun 30 yil avvalgi hayotda shaxsiy kompyuterlar bo'lmaganligini tasavvur qilish mushkul...Endilikda axborot texnologiyalari nafaqat mustaqil fan sifatida shakllanib ulgurdi, balki iqtisodning eng jadal suratlar bilan rivojlanayotgan sohasiga aylandi va millionlab odamlarning hayot tarzini belgilab berdi. Ishlab chiqarish va boshqa sohalardagi jarayonlarni kompyuter yordamida boshqarish axborot-kommunikasiya texnologiyalarini o'rganishga bo'lgan ehtiyojni kun sayin oshirib bormoqda. Bugungi kunda respublikamizning umumta'lim maktablari minglab kompyuter sinflari bilan ta'minlangan. Bu kompyuterlarning barchasini yagona kompyuter tarmog'iga ulab, ta'limning yaxlit texnik tizimini tashkil etish rejalashtirilgan. Kompyuter savodxonligi bo'yicha orttirilgan bilim va ko'nikmalar o'qituvchilarning pedagogic mahoratini yuksaltirib, ularning amalda qo'llanishi darslarga o'zgacha joziba bag'ishlaydi, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishi, izlanishi yanada o'rtadi. Jarayon deganda oldinga qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan harakatlarning muayyan yig'indisi, jamlanmasi tushuniladi. Axborot texnologiyalarning maqsadi inson tahlil qilishi uchun axborotni ishlab chiqarish va uning asosida biror bir hatti-harakatni bajarish bo'yicha qarorqabul qilishdan iboratdir. Axborot texnologiyalarinitatbiq etish iqtisodiyot, fan, ta'lim va boshqarishning barcha sohalorida davom etmoqda. Axborot texnologiyalarining fan va ta'lim sohasidagi asoslari bo'lgan ko'plab zamonaviy texnika vositalari: kodoskop, audio va video magnitofonlar, televizor, kompyuter, skaner, mikrofon, kolonka, videoko'z, videoproyektor va nusxa olish apparatlaridan dars berish jarayonida maksimal foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishga keng imkoniyatlar yaratadi. Axborot texnologiyasi -bu ob'yekt, jarayon yoki hodisalar holati haqidagi ma'lumotlarni bir ko'rinishdan ikkinchi, sifat jihatdan mutloq yangi ko'rinishga keltiruvchi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash o'zlatishning vosita va usullari majmuasidan foydalanish jarayonidir. Hayotiy tajriba shuni ko'rsatadiki, bu usullardan foydalanish natijalari turlicha bo'ladi va natijalarga qarab qaysi usuldan foydalanishni o'zingiz belgilab olasiz. Ta'lim jarayonida multimedia vositalari yordamida darslarning samaradorligini oshirish mumkin. Hozirda amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, multimedia vositalari yordamida tinglovchilarni o'qitish ikki barobar samarali bo'lmoqda. Ma'lumki, eshitgan materialning to'rtidan bir qismi xotirada qoladigan bo'lsa, tinglovchilarga berilayotgan materiallarni video orqali amalga oshirsak, axborotni xotirada saqlanib qolishi va tasavvur qilish imkoniyati 35-70 foizgacha oshadi. Shuningdek, mazkur o'quv dasturlar audio, video va grafika ko'rinishida mujassamlashtirilgan holatda tinglovchilarga berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 70-95 foizga oshishi kuzatilmoqda. Ta'lim sohasida multimediasositalari yordamida tinglovchilarga bilim berish afzalliklari: Ta'lim jarayonida berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyatining mavjudligi. Ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqini yanada oshishi. Dars jarayonida bilim olish vaqtining qisqarishi natijasida vaqtni tejash imkoniyatiga erishilishi. Olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq muddat saqlab qolinishi va uni amaliyotda qo'llash mumkinligi. Darhaqiqat, bugun O'zbekiston

qo'lg'a kiritayotgan salmoqli yutuqlar, barcha sohalarida olib borilayotgan izchil islohotlarning yuksak natijalari va samaralari jahon hamjamiyatini hayrat va havasga solmoqda. Mamlakatimiz taraqqiyotidagi bu tarixiy evrilishlarning boisi esa, albatta, erkin va ozod, tinch-osoyshta hayotimizning mevasidir. Tarixiy xotira ham, shu ma'noda, mustaqilligimizni mustahkamlash, xalqimizning farovon kelajagini ta'minlash, boy milliy merosimiz va qadriyatlarimiz, urf-odat, an'analarimizni e'zozlash, yurtimizni taraqqiy etgan ilg'or mamlakatlar qatoriga olib chiqish uchun fuqarolarimizda daxldorlik tuyg'usini shakllantirishga xizmat qiladi. Kelajagi buyuk va ertangi kuni porloq yurtga, millatga har tomonlama sog'lom, ma'nan yetuk yoshlar zarur. Shu bois, bugungi kunda yosh avlod tarbiyasiga bo'lgan e'tibor bizda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Prezidentimizning: "Bugun yoshlarimiz hal qiluvchi kuch bo'lib hayotga kiryapti. Men bu yoshlarga o'zimga ishongandek ishonaman", degan so'zlari zamirida ham ana shu haqiqat mujassam. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlar yangi ta'lim standartlarini ishlab chiqish, yangi o'quv fanlarini, yangi darsliklar va o'quv qo'llanmalarini kiritish bilan bir qatorda, o'qitish metodikasini o'zgartirish ehtiyojini ham yuzaga keltirdi. O'quv jarayonida ulardan birgalikda foydalanish esa yanada yaxshiroq va samaraliroq natija beradi. O'quvchilarga Yunesko ta'rifi bo'yicha: «Pedagogik texnologiya —bu texnik va inson resurslarini hisobga olish va ularning ta'lim shakllarini takomillashtirish vazifasini o'z oldiga qo'yuvchi hamkorliklari bilan o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini tashkil qilish, qo'llash va belgilash tizimli metodi» ekanligini eslatib o'tish kerak. Ushbu tushunchadan, aynan tizimli yondashish pedagogik texnologiyani ta'limga boshqa yondashishlardan farq qilishi ko'rinib turibdi. Bu esa rejalashtirishga, aniqrog'i, o'quv mashg'ulotini loyihalashtirishga yondashishni o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi. M. V. Klarinning yozishicha: «Pedagogik texnologiyaning umumiy ko'rsatmasi: aniq berilgan maqsadlar bilan o'quv jarayonini boshqarish yo'lidagi didaktikmuammolarni hal qilish, ularga erishish aniq ta'riflarga va tushunchaga ega bo'lishi kerak». Shunda o'quv mashg'ulotlarini loyihalashtirish jarayoni quyidagi tartibda amalga oshiriladi Ushbu jadvaldan o'qituvchi o'z bilimlari, metodik tajribasi va imkoniyatlaridan kelib chiqib, auditoriyasini, sharoitlarni va shu kabilarni hisobga olgan holda, ta'lim metodlari va vositalarini o'zi tanlashi ko'rinib turibdi. Bular esa ta'lim ham an'anaviy, interfaol strategiyalar, metod hamda uslublar va albatta axborot texnologiyalari bo'lishi ham mumkin. Ta'lim axborot texnologiyalarini ta'lim faoliyatini amalga oshirishda foydalaniladigan elektron vositalar va usullar ularning to'plami sifatida qarash mumkin. Talabalarga har bir harakat natijalarini darhol xabar qiling («natijalarni bilish» qoidasi); ushbu tamoyil joriy baholashga asoslanadi (ta'limda qayta aloqa tamoyili). Talabalardan ko'zlangan harakatlarni ijobiy qo'llab-quvvatlang: noto'g'ri harakatlari uchun tanbeh bermang, balki konstruktiv, yo'naltiruvchi tarzda tushuntiring, misol uchun, «yana bir marta ifoda etishga harakat qilib ko'ringchi» yoki «Bo'lim mazmunini yana bir marta o'rganib chiqishingiz kerak» (ijobiy qo'llab-quvvatlash harakatlari qoidasi). Multimediali taqdimotlarni ishlab chiqish pedagogga talabalarga o'rganilayotgan materiallarni qiziqarli, ko'rgazmali, chiroyli, ixcham va foydali taqdim etish imkonini beradi. Ma'lumki, multimedia (ingl. multimedia, lotin tilida. multum —

ko'p va media, medium –jamlash, to'plash, vositalar) –bu axborotlar bir necha turlaridan iborat (matn, tasvir, animatsiya, audio va videolavhalarni) o'z ichiga oluvchi axborotlar kompleks elektron nusxasini taqdim etish. Multimediali taqdimotlarni namoyish etish talabalarda qiziqish uyg'otish, baravariga bir necha sezgi organlariga ta'sir ko'rsatish, isbotlar bilan mustahkamlash va aytilganlarni kuchaytirish, jadallik, mobillik va interfaollikdan foydalanish imkonini beradi. Ilmiy tadqiqotlar natijalari, ko'rgazma vositalaridan foydalanilganda tinglovchilarni ishonitirish ehtimoli 43 foizdan ortiq bo'lishini, shu bilan birga, 25-40 foiz kam vaqt sarflanishini ko'rsatadi. Multimediali taqdimotlarni ishlab chiqish –bu o'quv fanlari mazmunlarini yaxshi bilishni, Microsoft Power Point taqdimotlarini yaratish va o'tkazish uchun dastur bilan ishlash ko'nikmalarini bilishni, yana albatta, slaydlarni ishlab chiqishga qo'yiladigan tavsiyalarni bilishni talab qiluvchi ijodiy jarayondir. Ushbu tavsiyalardan foydalanish slaydlarda asosan o'rganilayotgan mavzu mazmunini aks ettirishga imkon beradi. Ammo amaliyot multimediali taqdimotga ta'lim jarayoni texnologikligini ham kiritish mumkinligini va shu tariqa, pedagogik va axborot texnologiyalarini birlashtirish mumkin.

Xulosa. Ta'lim dizayni-tizimga kiritilgan o'quv materiallarini loyihalashtirish, ishlabchiqish, baholash va ulardan foydalanish jarayonida samarali o'quv-ishlari to'g'risidagi bilimlardan (tamoyillardan) foydalanish, shu bilan birga, dars axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining asosiy g'oyalarini amalga oshirishning bevosita vositasi sifatida eng puxta ishlab chiqishni talab qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Safibullaevna, Abdullaeva Ozoda, and Khusayinova Guzal Abdurasulovna. "Application Of Media Literacy Elements In Students In The Independent Learning Process." *Texas Journal of Multidisciplinary Studies* 3 (2021): 105-107.
2. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Satbayeva «Mehnat va uni o'qitish metodikasi». Darslik. T.: TDPU. 2015-yil.
3. Mavlonova R. A., Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Mehnat va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. T.: TDPU. 2007-yil.
4. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P., Sanaquiova A.K. "Texnologiya" 2-sinfdarsligi. T.: "Sharq". 2018-yil
5. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P., Sanaqulova A.K. Mehnat ta'limi 3-sinfdarsligi. T.: "Sharq". 2016-yil
6. Tokhtakhojaevich, Ulukhanov Ibrokhim, Khusainova Guzal Abdurasulovna, and Ubaydullaev Solijon Kadirovich. "Pedagogical conditions for the formation of creative competence of students." *Web of Scientist: International Scientific Research Journal* 3.5 (2022): 506-510.